O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI
Samarqand shahri, 2023-yil, 18-may

Samarqand – 2023

Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Samarqand: SamDCHTI nashri, 2023. – 208 bet.

Ushbu to‘plamdan “Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchilarining maqolalari o‘rin olgan bo‘lib, undan barcha tilshunos, adabiyotshunos va pedagoglar foydalanishi mumkin.

Tahrir hay’ati:

Professor I.M.Tuxtasinov	rais
Dotsent Sh.Ashurov	rais o‘rinbosari
Professor N.Q.Turniyozov	a’zo
Professor Sh.S.Safarov	a’zo
Professor T.A. Bushuy	a’zo
Professor X.Z.Xayrullayev	a’zo
Dotsent B.Turniyozov	a’zo
Dotsent Sh.N.Turniyazova	mas’ul muharrir
Dotsent M.A.Xalova	mas’ul kotib

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’ul.

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2023.

feature of the beginnings is their semantic and grammatical completeness, independence in comparison with subsequent sentences.

Special syntactic means are also used to design the ending of the stanza. In this function, the union is used and in the concluding meaning: *Германн долго не мог опомниться. Он вышел в другую комнату. Денщик его спал на полу; Германн насилу его добудился. Денщик был пьян по обыкновению: от него нельзя было добиться никакого толку. Дверь в сени была заперта, Германн возвратился в свою комнату, засветил свечку и записал свое видение (П.).*

The last sentence consists of three homogeneous predicates with a union and before the last one. The union and, closing a number of homogeneous members, means the exhaustion of the enumeration. At the end of the prosaic stanza, the function of the union becomes more complicated under similar conditions: it marks the completeness of not only the enumeration, but the entire stanza.

Unions a, yes, but, as well as interrogative and exclamatory sentences, introductory words, direct speech, etc. can also complete the stanza. In any case, the syntactic appearance of the ending changes compared to the previous text (a different word order, sentence structure, the nature of the syntactic connection of the ending with the previous sentence, the modal narrative plan, etc.). The special syntactic design of beginnings and endings makes it possible to single out stanzas in the text, and, in addition, organizes speech syntactically and stylistically. When selecting stanzas, it is very important to take into account the semantic criteria, first of all, the exhaustion, completeness of the development of the micro-theme of the stanza.

The prose stanza is the main "building material" of coherent speech. In the structure of the prose stanza, in the connections between its elements, the originality of the style of the writer or publicist is largely manifested. The prose stanza plays an important role in shaping the style of the work, it participates in the semantic (and intonation) articulation of speech, in creating the rhythm of prose. In a work of art, it is the stanza, and not the sentence, that is the smallest artistic whole.

List of used literature:

1. Galperin I. R. tekst kak obyekt lingvisticheskogo issledovaniya. Moscow. 1981.
2. Odinsov V.V. stilistika teksta. Moscow. 1980.
3. Pospelov N. S. Slojnosintaksicheskoye seloye I osnovnie osobennosti ego strukturi. Moscow.-L. 1948.
4. Silman T.P. problem sintaksicheskoy stilistiki. L. 1967.
5. Solgannik G. Ya. Sintaksicheskaya stilistika. M. 2008.
6. Tolstoy L.N. Kovkazskiy plennik. Sobrannik socheneniy. T.10.
7. Pushkin A.S. Povesti pokoynogo Ivana Petrogo Belkina. 13s.
8. Pushkin A.S. Pikovaya doma.

Sh.S.Xo‘janiyazova,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
dotsent v.b. f.f.f.d. (PhD)

ALISHER NAVOIYNING “SABA’I SAYYOR” ASARIDA QO‘LLANILGAN MUSIQIY ISTILOHLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Saba’i sayyor” dostonida ishlatilgan musiqiy leksemalarning hosil bo‘lishi, o‘z va o‘zlashma qatlamga oid so‘zlarning leksik va morfologik tarkibi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *nag‘ma, navo, soz, tarona, mug‘anniy, surud, rud, chang.*

Musiqa ilmi ikki masalani qamrab olgan. Ulardan biri nag‘malarning holatlari haqidagi bahs bo‘lib, ta’lif (moslashuv) deyiladi, ikkinchisi – nag‘malar orasidan o‘tadigan zamon miqdori

haqidagi bahs. U iyqo (ritm) ilmi deb ataladi[1]. Xalq cholg‘u asboblarining tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. B. Tursunovning ta’kidlashicha, dastlabki musiqa cholg‘ulari eradan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan. Tarixiy manbalarga ko’ra, musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg‘ular, keyinchalik shovqinli cholg‘ular (ijrochilar qarsak bilan ritmni takrorlaydilar va shovqinli cholg‘ular ta’sirini kuchaytiradilar), vaqtlar o‘tib esa asta-sekin xalq ustalari tomonidan naysimon xunggaklar, shiqildoqlar, surnay va nay (qamish va bambuk poyalaridan) kabi sozlar yuzaga kela boshlagan. Asta-sekin torli-mizrobli va torli kamonchali musiqa cholgulari paydo bo‘lgan[2]. Navoiy asarlarida musiqa asboblari adabiy-badiiy obraz sifatida she’riy san’atlar orqali lirik tasvirlanadi. Ammo bunday ta’riflar bitilgan baytlar teran idrok qilinsa, musiqaning ilmiy jihatlariga ham e’tibor bilan yondoshilganligi ma’lum bo‘ladi[3]. Qolaversa, Navoiy o‘z nazmiy-badiiy tafakkuridagi musiqiy nisbatlar, majoziy o‘xshatishlar, tugal, yaxlit obrazlar qiyofasini gavdalantirishda musiqiy bo‘yoqlar, musiqiy sifatlovlardan keng foydalangan[4].

Navoiyning bebaho ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o‘ringa ega. Zamonasining advor va musiqiy ilmida shuhrat taratgan Ustoz Muhammad Xorazmiy, Mavlono Nu’mon, Mavlono Sohib Balxiy, Shayx Safoyi Samarqandiy, Yusuf Andijoniy kabi shoir, bastakor va sozandalar yoqimli kuy hamda ohang, shirin suxan, xushmuomala ovoz sohibi sifatida mashhur bo‘lib, ular musiqiy asboblardan mohirona foydalangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar, shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur ham musiqa ilmiga oid maxsus asar yozgani hech kimga sir emas. Navoiyning “Saba’i sayyor” dostonida ham musiqa ilmiga oid bir qator istilohlar ketirilgan. Chunonchi, ***nag‘ma, navo, soz, tarona, mug‘anniy, surud, rud, chang, rubob, savt, nay, savt, raqqos, changzan*** va h.k.

Navoiy asarlari tilida “ohang, kuy, navo” (ANATIL, II, 449) semasini ifodalagan arabcha *nag‘ma* istilohi hozirgi o‘zbek adabiy tilida “labda yurg‘izib puflab chalinadigan musiqa asbobi” ma’nosini anglatadi (O‘TIL, III, 30). ***Nag‘mat (un)*** shakliga ega bo‘lib (ARS, 815), o‘zbek tiliga so‘z oxiridagi ***t*** tovushi tushib qoladi: ***nag‘mat- nag‘ma; nag‘ama*** fe’lining “ashula aytdi” ma’nosi bilan (ARS, 815) hosil qilingan (O‘TEL, II, 323). “Sab’ai sayyor”da ham ayni shu ma’noda qo‘llangan:

Chang birla tarabfizo dag‘i ul,
Nag‘ma *birla g‘azalsaro dag‘i ul (S.S, 574).*

“Milliy musiqa asbobi torlarining yoki musiqa asbobarining umumiy nomi” semasidagi ***soz*** o‘zlashmasi (O‘TIL, III, 544) asarda “1) soz, cholg‘u quroli, musiqa asbobi; 2) jo‘r, ohang, kuy, nag‘ma (ANATIL, III, 98) ma’nosida ishlatilgan:

Shahg‘akim, ishrati mudom erdi,
Soz *birla surud kom erdi (S.S, 339).*

Forscha-tojikcha ***surud*** istilohi 1) “qo‘shiq, ashula”; 2) “ohang; vazn” ma’nolarini ifodalaydi (ANATIL, III, 130, NAL, 576). “Saba’i sayyor”da ushbu istiloh ***surud ahli*** izofali birikma tarkibida kelib “hofiz, sozanda, xonanda” semasida qo‘llangan:

Ko‘p edi xizmatida rud ahli,
Bazmida jonfizo ***surud ahli*** *(S.S,339).*

“Mediator bilan chertib chalinadigan besh torli musiqa asbobi” (O‘TIL, III, 396) ma’nosidagi ***rubob*** o‘zlashmasi asarda ham ayni shu ma’noda qo‘llangan:

Xoja majlisda hozir ayladi may,
Chiqti savti ***rubobu*** *nag‘mai nay* (*S.S, 412).*

---

[1] Арипов З. Араб мусиқа терминлари тизимининг шаклланиши ва тараққиёти (X–XV асрлар Ўрта Осиё олимларининг мусиқашуносликка оид асарлари асосида). Филол. фан. докт... дисс (DSc) автореф. –– Тошкент. 2019. – Б. 26.

[2] Турсунов Б. Чолғу ижрочилиги тарихига бир назар. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal. – Тошкент. 2020. № 5. – Б. 125.

[3] Жўраев Л. Алишер Навоий ижодида най чолғусининг таърифи. Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент. – Б. 267.

[4] G‘ofurbekov T. Hazrat Navoiyning musiqiy tafakkuri. http://www.classicmusic.uz/kutubxona_uz.htm.

“O‘zbek mumtoz musiqasida kuyning asosiy qismidan keyin keladigan so‘nggi qism” (O‘TIL, III, 417) semasidagi forscha ***savt*** o‘zlashmasi “ovoz, tovush; kuy, ohang” (ANATIL, III, 21) ma’nosida asarda quyidagicha qo‘llangan:

Toki oy un chekib tarona bila,
*Boshladi **savt** bu fasona bila (S.S, 603).*

Forobiyning ta’kidlashicha, *nay* turli damli cholg‘ularning ovoz hosil qilish prinsipiga ko‘ra paysimon guruhga mansubdir. Ular hozirgi kunda Sharq xalqlari orasida mavjud bo‘lib, vetnamliklar *sao*, tojiklar *tutek*, tatarlar *kaval*, qozoqlar *sibizga*, ozarbayjonlar *ney* (juda kam uchraydi), qirg‘izlar *uoo, choor* (cho‘ponlarning cholg‘u asbobi), o‘zbeklar *nay* deb ataydi[1].

“Oltita teshigini barmoqlar bilan bekitib-ochib, puflab chalinadigan musiqa asbobi; sibizg‘a” ma’nosidagi ***nay*** (O‘TIL, III, 12) o‘zlashmasi asarda “nay; cholg‘u asbobi” (ANATIL, II, 427) ma’nosida ifodalangan:

Juna gulshan aro ichar edi may,
*Bazmida lahni **udu** nolai **nay** (S.S, 512).*

Ushbu baytda ***ud*** istilohi “cholg‘u asbobi; torlik cholg‘u asbobi” (ANATIL, II, 427) ma’nosida ishlatilgan. Bu istiloh “uchburchak shaklidagi ko‘p torli, chertib chalinadigan musiqa asbobi”ni bildirishni ta’kidlangan. Tilshunos olim Sh. Rahmatullayevning ta’kidlashicha, ***ud*** istilohi ARSda berilmagan (28); bu lug‘atning 501- betida keltirilgan ***‘ud (ud)*** so‘zi tamoman boshqa, ya’ni “tom” ma’nosida izohlangan. ***Ud*** nimagadir PRSga kiritilmagan, TjRSning 402-betida ***ud*** istilohi “arfa”, deb izohlangan. O‘RLda ushbu istiloh “lira, arfa” tarzida tarjima qilingan (484). Asli ***ud, arfa, lira*** deb ataladigan uch misiqa asbobi bir-biridan farq qiladi, shu sababli ***ud*** istilohi “arfa, lira” deb tarjima qilish to‘g‘ri emas. ***Lira*** qadimgi Yunonistonda, ***arfa*** Yevropada yaratilgan, ***ud*** esa sharq dunyosiga mansub musiqa asbobini anglatadi[2]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ***ud*** “katta noksimon kosaxonali, kalta dastali, ko‘p torli, chertib chalinadigan musiqa asbobi” (O‘TIL, IV, 263) ma’nolarida ishlatilmoqda.

“Bosh tomoni egik cholg‘u asbobi” (NAL, 673) ma’nosidagi ***chang*** istilohi hozirgi o‘zbek adabiy tilda “qutisimon trapesiya yoki yoy shaklidagi, sim torlar tortilgan, tirnama yoki qo‘sh cho‘p bilan urib chalinadigan jarangdor cholg‘u asbobi; labga qo‘yib, po‘lat tilini barmoq bilan turtib, nafas bilan chalinadigan kichik cholg‘u asbobi; changovuz” (O‘TIL, IV, 454) ma’nolarida qo‘llanmoqda:

***Chang** torig‘a chun fig‘on berdi,*
Kimki o‘lturmish erdi — jon berdi (S.S,496.)

Eski o‘zbek adabiy tilida “musiqa asbobi” ma’nosidagi (ANATIL, III, 633) ***rud*** istilohi S.Sda quyidagicha aks etgan:

Mutaaddid anga nikoh kerak,
*Qasrlar ichra **rudu** roh kerak (S.S,392).*

“O‘yinchi” ma’nosidagi *raqqos* leksemasi asarda ham ayni shu ma’noda ifodalangan (ANATIL, II, 615):

*Bahrni chunki el qilib **raqqos**,*
Charx urardin bo‘lub safina xalos (S.S, 563).

Navoiy asarlarida bastakorlik bilan birga *nag‘masoz, nag‘mapardoz*; musiqiy janrlar – *soz, navo, nag‘ma, surud, ohang, savt*; qo‘shiqchi, ashulachi va sozandalar: *surud, changzan, mug‘anniy, nag‘masaro*; cholg‘u asboblaridan - *ud, nay, soz, rud, chang, rubob* kabi istilohlar ishlatilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, XIV asrning ikkinchi yarmi -XV asrda Temur va temuriylar davlati davrida madaniyat, ilm-fan bilan bir qatorda, musiqa san’ati ham ravnaq topgan. Uning namoyandalari o‘z yuksak ijodlari bilan jahon madaniyati va san’ati xazinasiga katta ulush qo‘shganlar. Alisher Navoiyning ijodiga nazar solar ekanmiz, uning musiqa san’atiga ixlosi

[1] Эсанов М. Ўзбек халқ чолғуларида ижрочилик тарихи. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal. – Тошкент. 2022. 1 март. – Б. 581.
[2] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II том. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 450.

cheksizligi va musiqa ilmidan boxabar ekanligini hamda asarlarida zamonaning sozanda, xonandalari, turfa musiqiy istilohlardan mohirona foydalanganligining guvohi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Alisher Navoiy. Xamsa. XX jildlik, VII jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom, 2013. –B. 275.

2. Арипов З. Араб мусиқа терминлари тизимининг шаклланиши ва тараққиёти (X–XV асрлар Ўрта Осиё олимларининг мусиқашуносликка оид асарлари асосида). Филол. фан. докт... дисс (DSc) автореф. – Тошкент. 2019.– Б. 26.

3. Жўраев Л. Алишер Навоий ижодида най чолғусининг таърифи. Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент. – Б. 267.

4. Раҳматуллаев. Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II том. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 450.

5. Турсунов Б. Чолғу ижрочилиги тарихига бир назар. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal. – Тошкент. 2020. № 5. – Б. 125.

6. Эсанов М. Ўзбек халқ чолғуларида ижрочилик тарихи. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal. – Тошкент. 2022. 1 март. – Б. 581.

6. G‘ofurbekov T. Hazrat Navoiyning musiqiy tafakkuri. http://www.classicmusic.uz/kutubxona_uz.htm.

Shartli qisqartmalar

ANAL – Фозилов Э.И. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент, I. 2013. – 2006 б.

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, I-IV. 1983-1985; I-1983, 646 б.; II-1983, 642 б.; III-1984, 622 б.; IV-1985, 636 б.

ARS – Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1976. – 595 с.

PRS – Миллер Б.В. Персидско-русский словарь. Госиздат ин.и нац.словарей. – М.: 1953.

TjRS – Таджикско-русский словарь. – М.: Государственное издательство иностранных и национальный словарей, 1954. – 789 с.

O‘TEL – Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 599 б.; Ўзбек тилининг этимологик луғати (арабча бирликлар ва уларнинг ҳосилалари). – Тошкент: Университет, 2003. – 599 б.: Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсча-тожикча бирликлар ва уларнинг ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2009. – 282 б.

O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. I-2006, – 680 б.; II-2006, – 672 б.; III- 2007, – 688 б.; IV-2008, – 608 б.; V-2008, – 592 б.

Mamlakatxon Nurmatova, SamDCHTI katta o‘qituvchisi
Lola Choriyeva, SamDCHTI talabasi

TALABA YOSHLARNI OILAGA AXLOQIY-PSIXOLOGIK MUHIT VA OILA A’ZOLARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’zbek oilalari funksiyalari va yoshlarni oilaviy hayotga tayorlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, ma’naviy-axloqiy, jismoniy barkamol, ta’lim-tarbiya, maktab psixologiyasi, psixologik xizmat, er-xotin, ota-onalar, farzandlar.

Mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog’lom ma’naviy muhitni, xususan, o’zaro hurmat-ehtirom, er-xotin o’rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o’rtasida, qo’ni-qo’shnilar o’rtasida mehr-

MUNDARIJA

I SHO‘BA
TIL TARAQQIYOTINING DERIVATSION QONUNIYATLARI

И.М.Тухтасинов. Таржимон тайёрлашнинг методик асослари....3
N.Q.Turniyozov. Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar xususida....5
A.G‘afforov. O‘zbek tilida ilovali qurilmalarning sintaktik shakllanishida zidlov bog‘lovchilarning o‘rni....7
М.Х.Зайниева. Глобал синтактик структура хусусида айрим мулоҳазалар....9
R.Samandarov. Gap shaklining kengayishi xususida....11
B.N.Turniyazov. Til sistemasida leksik kauzativning o‘rni....13
O.E.Eshboyeva. Applikativ va transformatsion modellar xususida....15
Sh.N.Turniyazova. Matn derivatsiyasida ko‘makchili qurilmalarning o‘rni....18
N.A.Ne’matova. Xitoy va o‘zbek tillarida teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi....21

II SHO‘BA
SISTEM VA STRUKTUR TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

Т.А. Бушуй. Современный словарь как продукт определенной научной концепции....23
A.M.Turobov. Tilshunoslik mustaqil fan sifatida....25
S.D.Tursunkulov. Nutq va uning xarakterli xususiyatlari....27
D.A.Dadajonova. Oliy ta’lim tizimi talabalarining o‘zini- o‘zi rivojlantirishda mustaqil ta’lim kompetentligini shakllantirish....29
S.S.Xudoyev. Nemis topishmoqlarining kompozitsion-ritmik tuzilishi tasnifi....32
R.Eshaliyeva. O‘zbek tilida olmosh so‘z turkumining imlosi....34
D.Mamirova, S. Ruziyeva. Nom bildiruvchi so‘zlarning reklama matnlarida qo‘llanishining o‘ziga xos xususiyatlari....37
Hidaka Shinsuke. O‘zbek tilidagi taxmin yoki mumkinlikni ifodalaydigan analitik ifodalar orasidagi farqlar....39
A.Ibayev. Tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmalarning struktur xususiyatlari....43
A.V.Faleeva. Theoretical interpretation of american colloquialistics in lexicographical sources....45
Sh.Alieva. Aniqlovchili birikmalar bilan kengayish natijasida hosil bo‘lgan transformalar xususida....48
R.Valijeva. Zur frage der terminologie von phraseologischen einheiten in der modernen linguistik……50

III SHO‘BA
KOGNITIV, PRAGMATIK TILSHUNOSLIK MASALALARI

X.Z.Xayrullayev, M.A.Ibragimova. Morfemaning lingvistik tavsifi xususida....53
Kh.Khayrullayev, U.Kuldoshov, A.Almuratova- The importance of cognitive metaphor in the language....58
М.Комилова. Хитой тилидан ўзлашган баъзи овқат номларининг семантик хусусиятлари (манти, лағмон, манпар сўзлари мисолида)....61
A.S.Kushbakova. Ingliz-o‘zbek rasmiy-biznes matnlarida pragmasemantik voqelanish haqida tushunchalar....64
T.Sh.Abdullaeva. Morphology of uzbek and english languages (morphological categories based on English and Uzbek materials)....66
S.Sog‘lomov. Emergence and usage of abbrivational homonyms....68
K.Hatamova. Tijorat hujjatlari tili va uning leksikasi....71
O.Q.Jumayev. Ajratilgan gap bo‘laklarning lingvistik tahlili……...72

A.A.Navro'zova. O‘zbek tilida -ikki nuqta belgisining pragmatik xususiyati.....76
N.M.Rasulov, S.J.Nurmatova. -mi So‘roq yuklamasining o‘zbek tilida ishlatilish o‘rni.....77
B.Tuxtayeva. Kiritma va qo‘shma so‘zlar haqida ayrim mulohazalar.....79
H.S.Egamberdiyeva. Zamonaviy tilshunoslikda neyrolingvistika sohasining paydo bo‘lishi va uning ahamiyati 81
K.K.Ahmedova. Virtual muloqotga xos nutq shakli.....83
G.M.Umarjonova, N.Aliyeva. Classification of pragmatic phraseologies in the german language and problems of their application 85
М.Зайниддинов. Киноя лингвостилистик категория сифатида.....88
K.A. Mamadkulova. Criteria of pedagogical technology: conceptuality, consistency, manageability, efficiency, reproducibility.....89
B.Sh.Nurmuhammedov. Toponimlarning kognitiv-pragmatik va lingvomadaniy aspektlari haqida ba’zi ulohazalar.....93

IV SHO‘BA
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MATN NAZARIYASI VA TA’LIM USLUBIYATI MASALALARI

M.B.Begmatov. Talabalarga chet tilini o‘qitishda gazeta maqolalaridan foydalanishning ustuvor vazifalari 95
Г.И.Тоирова. Ўзбек тили миллий корпусини яратиш методологияси ва унинг муаммолари.....96
U.Rashidova, O.Mamarajabova. O‘zbek tili izohli lug‘atida “bosh” komponentli iboralarning grammatik tavsifi.....101
I.U.Mamasoliev. Ilova konstruksiya tarkibida badiiy tasvir vositalarining ilovali elementlar sifatida qo‘llanilishi 103
K.A. Mamadkulova. Use of traditional teaching methods in foreign language lessons 105
S.D.Tursunkulov. Badiiy nutqning ishtirokchilari 108
D.A.Dadajanova. Oliy ta’lim tizimi talabalarining o‘zini- o‘zi rivojlantirishda mustaqil ta’lim kompetentligini shakllantirish 110
F.Yakubov. Diskurs va matn tushunchasi haqida 113
X.U.Urokov. Internet-ijtimoiy tarmoq matnlarining sotsiolingvistik xususiyatlari 117
Z.A.Norboyev. O‘zbekistonda cefr mezonlari asosida yangi avlod darsliklarini yaratishning me’yoriy-uslubiy asoslari 120
M.Sh.Mardiyeva. G‘afur G‘ulomning individual frazeologizmlar qo‘llash mahorati.....123
A.F.Shamaxmudova, L.R.Muratova. Bo‘lajak chet tili o'qituvchilarni pedagogik mahoratlarini shakllantirish omillari sifatida video kontentdan foydalanish.....124
M.J.Qurbonova. Badiiy matn uslubiy-semantik xususiyatini yuzaga chiqaruvchi vositalar 125
A.B.Qurbonov. Badiiy adabiyotning tarkibiy-funksional tahlili.....128
N.Sh.Shermamatova. Publitsistik matnlarda undalmalarning qo‘llanilishi.....130
J.B.Anarbayev. The new Uzbekistan is become a social state 132
О.М.Рисаева. К размышлению о новом подходе в изучении глагольно-именных сочетаний современного немецкого языка.....134
Тұрсын Е.Қ., Авакова Р.А. Өзбек тілі қыпшақ диалектісінің этномәдени лексикасы («Алпамыш» эпосы негізінде).....136
D.N.Rahmatova. Davr tilining leksik-semantik qatlamini aniqlashda lug‘atning ahamiyati 140
F.H.Sirojiddinova. O‘smir bolalarda og‘uvchi axloqning paydo bo‘lishi.....143
Ш.Носирова. О гендерных стереотипов в диалоговой речи детей младшего школьного возраста.....146

V SHO‘BA
TIL VA ADABIYOT NAZARIYASI

Р.Д.Журакулов. Фразеологические единицы общенародного пласта сказок: фе с соматизмами (на материале фразеологии русских переводов узбекских народных сказок).....149
M.A.Xalova, F.Sadinov. Yuragida yo‘lbars yotgan ijodkor.....152
I.M.Pardaeva. Tariximizni bezagan malika.....154
M.T.Zokirov. Lingvokulturologiyada olamning til manzarasi masalasi xususida.....156
R.A.Suvonova, S.Allamurodova. Okkazionalizmlarning so’z turkumlariga xoslanishi.....158
К.Мақсат, Ж.Қ.Түймебаев. Шағатай тілі лұғаттары.....161
S.R.Karimova. O‘zbek adabiyotida zullisonaynlik an’analari.....163
H.A.Aslanova. Xoja hikoyatlarida oshiq shoh obrazi.....167
G.M.Umarjonova, O.Jo‘rayeva. Nemis tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi hususida.....170
G.F.Xayrulloyeva. O‘zbek tilida tinish belgilarining ketma-ket qo‘llanilishi va ularning ozaro sinonimik munosabatlari.....173
I.Pardayeva. Zargarlik terminlarining tematik tasnifi.....175
У.С.Умирзаков. Мақолларнинг лингвистик хусусиятлари.....177
N.Abdumannatova. “Hotamnoma” asaridagi ayrim fe’llarning lingvofolkloristik tahlili.....178
M.B.Eshniyazova. Alisher navoiyning “arba’in” asarida qo‘llangan she’riy unsurlar badiiyati 180
T.Yu.Oydinov. XVI asr manbalarida shayboniy ijodkorlar tasviri.....183
T.P.Bekmurodov. Jadidlar davridagi matbuot va nashiryotlar tadqiqi.....185
S.S.Mirzakamolova. Muloqotda samimiylik tushunchasining yondosh tushunchalar bilan kesishuvi.....188
S.Mavlonova. The lexical features of the artistic speech.....191
T.Habibullayev. Tillar – davr ko‘zgusi.....193
M.Z.Saydullayeva. Ingliz yozuvchisi uilyam shekspirning “hamlet” fojeasidagi bosh qahramon xarakteristikasi.....195
X.Sh.Gafforov. Ingliz va o‘zbek tillarida gender belgili frazeologik birliklarni o’rganish mezonlari.....197
M.Z.Saydullayeva. O‘tkir qalam sohibi chingiz aytmatovning “jamila” qissasidagi botiniy va zohiriy ma’no xususida tahliliy qarashlar.....199
R.Raxmatova. Zulfiya qurolboy qizi hikoyalarida rashk tavsifi.....201
E.E.Rajabov, N.B.Qiyomova. O‘zbek va ingliz xalq iboralarida “oila” konseptining ifodalanishi.....203
Z.Khamrayeva. Complex syntactic whole: prose stanza……..……...207
Sh.S.Xo‘janiyazova. Alisher Navoiyning “Saba’i sayyor” asarida qo‘llanilgan musiqiy istilohlarning lisoniy xususiyatlari……..……207
M.Nurmatova, L.Choriyeva. Talaba yoshlarni oilaga axloqiy-psixologik muhit va oila a’zolarini oilaviy hayotga tayyorlash……..……210
M.M.Ergasheva. The etymological information on phraseological units with proper name 213

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI
Samarqand shahri, 2023-yil, 18-may

Muharrir: G.Rahimova
Musahhih: Z.Usmanova
Tex.muharrir: H.Amirdinov

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655
Bosmaxona tasdiqnomasi:
№ 8376-525f-572d-f37b-0fd6-3529-7957

2023-yil 16-mayda bosishga ruxsat etildi:
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84$_{1/8}$.
“Times” garniturasi. Raqamli bosma usulda bosildi.
Hisob-nashriyot t.: 26,0. Shartli b.t. 19,0.
Adadi 10 nusxa. Buyurtma №16/05.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo‘limida chop etildi.
Manzil: Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93.